XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - mart VI-40-25-10-214-K/22 Ohangaron shahar hokimligi

Ohangaron shahridagi No‘g‘oyqo‘rg‘on mahallasi hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son qarori, 2022-yil 11-yanvardagi shahar hokimligining 1-sonli bayonnomasi va Ohangaron shahridagi “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘inining hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga asosan ko‘rib chiqilgan “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash” masalalari bo‘yicha Toshkent viloyati komissiyasining 2022-yil 19-fevraldagi 1/SF-4-90-sonli Bayonnomasiga muvofiq, xalq deputatlari shahar kengashi,

QAROR QILADI:

1. “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyaning 2022-yil 24-fevraldagi 01-14-211-sonli hamda “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash” masalalari bo‘yicha Toshkent viloyati komissiyasining 2022-yil 19-fevraldagi 1/SF-4-90-sonli Bayonnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ohangaron shahridagi “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahallasi hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risidagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining 2022-yil 11-yanvardagi 1-sonli bayoni, Ohangaron shahar hokimi va No‘g‘oyqo‘rg‘on mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan berilgan takliflar ma’qullansin.

3. Ohangaron shahridagi “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahallasi hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla ro‘yxati hamda uning nomi **1-ilovaga**, yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Ohangaron shahar hokimligi:

yangi tashkil etilgan mahallalarning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsin;

hududlarga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahallasida joylashgan Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining 2 ta saylov okruglari 3-“No‘g‘oyqo‘rg‘on” saylov okrugi va 4-“Yangiavlod” saylov okrug chegaralari Xalq deputatlari viloyat va shahar, tuman Kengashlariga saylovlarni o‘tkazish vaqtiga qadar o‘zgarishsiz qoldirilsin.

6. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Turdibayev), Ohangaron shahar moliya bo‘limi (L.Bazarov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralari ko‘rilsin.

7. “Ohangaron hayoti” gazetasi tahririyati (Sh.To‘laganova), shahar hokimligi axborot xizmati rahbari mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi J.Uzakov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Xalq deputatlari Ohangaron shahar
Kengashining
2022 yil 30 martdagi
VI-40-25-10-214-K/22-son qaroriga
1-ilova

Ohangaron shahridagi “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahallasi hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla ro‘yxati hamda uning nomi

T/r	Bo‘linadigan mahallaning nomi	Bo‘lish hisobiga yangi tashkil etilgan mahallalar nomi	Izoh
1.	No‘g‘oyqo‘rg‘on	No‘g‘oyqo‘rg‘on	O‘zbekiston Resp. VMning 2014-yil 4-martdagi 48-son qarorining 8-bandiga asosan Aholi sonini ko‘payganligi munosabati bilan
2.		Bunyodkor	

Xalq deputatlari Ohangaron shahar
Kengashining
2022 yil 30 martdagi
VI-40-25-10-214-K/22-son qaroriga
2-ilova

Yangi tashkil etilayotgan mahalla sababli “No‘g‘oyqo‘rg‘on” m.f.y. ning va tashkil etilayotgan mahallaning chegaralari va tavsifi

1. Bunyodkor mahallasi:

Markazi:

Xonadon soni: 503 ta

Oila soni: 591 ta

Chegarasi: Munchoqtepa, Yangiavlod, Nurafshon ko‘chalaridagi uylar, Bunyodkor ko‘chasidagi 96 ta yakka tartibdagi uylar va Xonobod ko‘chasidagi hovli uylar.

2. No‘g‘oyqo‘rg‘on mahallasi:

Markazi:

Xonadon soni: 553 ta

Oila soni: 540 ta

Chegarasi: 5-kichik tumanidagi 10 ta ko‘p qavvatli uylar, 10 ta hizmat uylari, No‘g‘oyqo‘rg‘on ko‘chasidagi 77 ta, Bunyodkor ko‘chasidagi 56 ta yakka tartibdagi hovli uylar.